

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**



ILMGA BAXSHIDA UMR

**filologiya fanlari doktori, professor, Qoraqalpog‘iston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Zaribboy Do‘simov tavalludining
75 yilligi hamda ilmiy-pedagogik faoliyatining 55 yilligiga
bag‘ishlangan „O‘zbek filologiyasining dolzarb masalalari“
mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani**

MATERIALLARI

Urganch
“Xorazm nashr matbaa”
2021

UO‘K 001 (092)

KBK 72g

Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari.

I-40 Ilmga baxshida umr [Matn]: to‘plam. – Urganch:
“Xorazm nashr matbaa”, 2021-yil. – 356 b.

Mas’ul muharrir:

D.G‘ayipov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
UrDU Filologiya fakulteti dekani

Tahrir hay’ati:

S.K.Salayev, Xorazm viloyati hokimi o‘rinbosari, iqtisod fanlari doktori, professor,
B.I.Abdullayev, fizika-matematika fanlari doktori, Urganch davlat universiteti rektori,
Z.Ibragimov, fizika-matematika fanlari nomzodi, Urganch davlat universiteti Ilmiy ishlar
va innovatsiyalar prorektori,
H.J.Abdullayev, filologiya fanlari doktori, professor,
S.Ro‘zimboyev, filologiya fanlari doktori, professor,
X.Bobojonov, pedagogika fanlari nomzodi, professor,
A.I.Primov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri,
Z.A.Jumaniyozov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Xorijiy filologiya fakulteti dekani,
R.Y.Xudoyberganov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
A.D.O‘razboyev, filologiya fanlari doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S.Xudoyberganova, filologiya fanlari doktori, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyot va folklori
instituti katta ilmiy xodimi,
N.E.Sobirova filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Xorazm viloyati XTXQTMOH
Markaz tillar o‘qitish kafedrasini mudiri,
M.B.Tillayeva, filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Sh.X.Norbayeva, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Mas’ul kotib:

Sh.M.Alimova, O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

Mazkur to‘plam filologiya fanlari doktori, professor, Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Zaribboy Do‘simov tavalludining 75 yilligiga bag‘ishlanadi. Ushbu to‘plamdan Urganch davlat universiteti professor-o‘qituvchilari, doktorant, magistrant tadqiqotchilarining ustozning hayot yo‘li, ijodiy va ilmiy faoliyatiga doir esdalik tabriklari, shuningdek, filologiyaning turli nazariy masalalariga oid ilmiy maqolalar o‘rin olgan.

To‘plam filolog o‘qituvchilar, doktorant-tadqiqotchilar, magistrantlar, talabalar va ushbu soha bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

**Ushbu to‘plam UrDU Kengashining 2021-yil 30-apreldagi 9-sonli majlisida
muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.**

ISBN 978-9943-6693-9-0

© Jamoa to‘plami, “Ilmga baxshida umr”.

© “Xorazm nashr matbaa”, 2021.

O‘ZBEK SHEVALARINING O‘RGANILISHI TARIXIDAN

From the history of studying Uzbek dialects

Ashirboyev Samixon,

*Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TA universiteti
professori, filologiya fanlari doktori*

Annotatsiya. O‘zbek tilshunosligi tarixining XIX asr 2-yarmi kam o‘rganilgan. Bu davrda, garchand, ilmiylik darajasi oz bo‘lsa-da, rus mualliflarining ishlari davr tilshunosligini, dialektologik bilimlarini, anglatishi mumkin. Bu maqolada o‘sha davr tilshunosligiga umumiy baho berilmaydi, balki shu davrda o‘zbek tilini o‘rganuvchilarga bag‘ishlangan elementar grammatikalar qaysi material asosida yaratilganligi, to‘g‘rirog‘i, ularning faktik materiallarida o‘zbek shevalari xususiyatlarining aks etganligi masalalasiga ahamiyat berildi. Ayni o‘rinda bu davrda yaratilgan asarlar muallifi o‘z oldiga o‘zbek shevalari to‘g‘risida ma’lumot berishni maqsad qilib qo‘ymagan bo‘lsa-da, ixtiyor-beixtiyor sheva materiallariga ham murojaat qilganligi e’tiborga olinadi. Shuning uchun ham ularning asarlarini dialektologik izlanishga aloqador deb qarash ham mumkin.

Tayanch so‘zlar: *til, sheva, orientalist, turkolog, tilshunoslik tarixi, so‘zlashuv tili, sart tili.*

Annotation. The history of Uzbek linguistics in the second half of the XIX century is poorly studied. During this period, although the level of science was low, the works of Russian authors could represent the linguistics of the period. This article does not give a general assessment of the linguistics of the period, but focuses on the material on which the elementary grammars for Uzbek language learners were created during this period, or rather, the fact that their factual materials reflected the features of Uzbek dialects. At the same time, although the author of the works created during this period did not intend to provide information about Uzbek dialects, he also involuntarily referred to dialect materials. Therefore, their works can be considered as related to dialectological research.

Keywords: *language, dialect, orientalist, turkologist, history of linguistics, colloquial language, Sart language.*

Ma'lumki, bu davrda hozirgi O'zbekiston Chor Rossiyasi tomonidan ishg'ol qilingan va barcha sohalarda, shu jumladan, madaniy sohada ham ularning hukmronligi o'rnatilgan edi. Shu munosabat bilan Markaziy Osiyoga birinchi navbatda rus chinovniklari, savdogarlari, rus intellegensiyasining juda ko'p namoyondalari: olimlar, o'qituvchi, demokratik kayfiyatdagi chinovniklar, ishchi va dehqonlar ham kela boshladilar. Ular o'lkaning, ko'proq shaharlarning doimiy aholisi bo'lib qoldilar. P.P.Semenov-Tyanshanskiy, N.A.Seversov, A. N.Fedchenko, I. V. Mushketov, R. D. Romanovskiy va boshqa ko'pgina rus geograflari, geologlari, adabiyotshunoslari keldi. V. V. Bartold, N. N. Veselovskiy va uning sheriklari Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi va madaniyatiga doir materiallarni to'plash va umumlashtirishda ishtirok etdilar. Ko'rinib turibdiki, sanalganlar qatorida tilshunoslari aks etmagan, chunki til o'rganish ular uchun ikkinchi darajali edi. Ularni, asosan, Markaziy Osiyoning tabiiy boyliklari qiziqtirar edi. Shunga qaramasdan, Markaziy Osiyodagi chinovniklar mahalliy xalqlar tilini o'rganish ehtiyojini seza boshladilar. Shu tufayli ham ular o'z hukmronligining dastlabki yillaridayoq o'zbek va boshqa mahalliy tillarga oid lug'atlar, ularga ilova ravishda grammatik ocherklar yarata boshladilar. Bu tadbirlar progressiv maqsadlarda amalga oshirilmagan, balki Chor Rossiyasining mustamlakachilik manfaatlariga qaratilgan edi, chunki aholidan, muhimrog'i, tabiiy boyliklardan foydalanish uchun mahalliy xalqlar tilini o'rganish zarur edi. Mana shu ehtiyoj Chor hukumati oldiga mahalliy xalq tarixi, etnografiyasi, adabiyoti va tilini o'rganish bilan shug'ullanadigan ma'lum bir tashkilotni vujudga keltirish vazifasini ham keltirib qo'ygan edi. Unda ruslar uchun mahalliy sart (o'zbek), fors, qirg'iz tillarida, tuzem xalqlari uchun o'zbek (sart) tilida til o'rganish kurslarini tashkil etish, Turkiston va qo'shni mamlakatlar turmushi, tili va odatlarini o'rganish, sharqshunoslikning barcha sohalari bo'yicha rus tilida asarlar nashr qilish kabi masalalar ham bor edi. [ЛуНИН, 1962, 130; АШИРБОВ, 1975, 8; Tursunov, O'rinboyev, 1982, 150].

Adabiyotlarda shu davrdagi ruslarning Markaziy Osiyoga kelishi bilan maktab maorif, ilm fan va savdo kabilarning shakllanishi va taraqqiy etishi bir tomonlama yoritilsa-da, o'zbek tilining o'rganilishi borasida fikrlar uchramas edi. Bu borada faqat A. K. Borovkovgina dastlabki ma'lumotlarni bergan, xolos [Боровков, 1942, 279]. Ta'kidlash joizki, ruslar tomonidan o'zbek tilining o'rganilishi Markaziy Osiyo xalqlarini ekspluatatsiya qilish hamda harbiy ishlarni yengillashtirish uchun zarur bo'lgan. Bunday g'oya o'sha davrda lug'at va grammatik ocherklar tuzganlarning o'z so'zlarida ham aks etgan, jumladan, V. Starchevskiy shunday yozadi: "Markaziy Osiyoning g'arbiy qismlarini bosib olganimizga 12 yil bo'ldi va bosib olishni yana davom ettirmoqdamiz. Bu yerga har yili minglab rus kishilari, katta miqdordagi harbiylar, chinovniklar, ruhoniylar, savdo xodimlari, fabrikantlar va sanoatchilar yuborilmoqdaki, ular bir necha tilda gaplashadigan musulmonlar tili bilan hech ham tanish emaslar, afsuski, shu davrgacha bu yerga yuborilganlar arab alifbosidan bexabar va uni o'rganish imkoniyati bo'lmagan, chunki mustaqil o'rganish uchun qo'llanmalar yaratilmagan. Markaziy Osiyoni qo'lga kiritdik, lekin atrofingdagi tillarni bilmaslik va tushunmaslik qimmatga tushishi mumkin" [Старчевский, 1878, 1]. I. A. Belyayev shunday deydi: "Tuzem aholisi tillarini bilmasligimiz faqat bu yerdagi kundalik hayotimizda emas, balki o'lkaning barcha jabhasiga rahbarlik qilishimizga to'sqinlik qiladi va ularning oldini olish uchun katta kuch va mablag' sarflashimizga to'g'ri keladi" [Беляев, 1906, 3]. Ma'lumki, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib, Turkistonda turib qolgan ruslar mahalliylashib qoldilar. Endi arab grafikasidagi yozuvni o'qish va yozishni o'rgatadigan asarlarga, ikki tilli lug'atlar va ulardan foydalanish yo'llarini ko'rsatuvchi grammatik asarlarga ehtiyoj oshib, borar edi. Bu asarlarning faktik materiallari xalq og'zaki ijodi materiallari, mumtoz adabiyot asarlari va ko'proq esa jonli so'zlashuv tili, ya'ni shu davrdagi shevalar bo'lgan. Shuni ta'kidlash joizki, quyida tilga olayotgan o'zbek tili asarlarining aksariyatida o'zbek tili *sart* tili deb yuritiladi. Bu tasodifiy emas, chunki *sart* so'zi bu davrda, asosan, o'zbek shahar aholisiga va, umuman, o'zbek tiliga nisbatan ham qo'llangan [Qаранг: Нурмонов, 2002, 126; Остроумов, 1908, 53-91], shu bilan birga, *o'zbek* istilohidan

foydalangan mualliflar ham bo‘lgan. Shu munosabat bilan quyidagi asarlar yuzaga keldi:

1. **Терентьев М.** Грамматика турецкая, персидская, киргизская и узбекская (СПб. 1875). М. Terentyev asarning kirish qismida o‘zbek tilining usmonli turk va tatar tilidan farqlanadigan xususiyati borligini hamda uning eski o‘zbek adabiy tiliga (chig‘atoy) nisbatan takomillashganligi haqida so‘z yuritadi, muhimi, u o‘zbek tilining chig‘atoy deb nomlanishi noto‘g‘ri ekanligini va til hukmdor nomi bilan atalishi xalq nomi bilan atalishga nisbatan asossiz ekanligini aytgani holda²⁰, shu davrdagi o‘zbek tilini Z. M. Bobur davridagiga nisbatan takomillashgan deb biladi, lekin asoslovchi fikrlarni keltirmaydi, shuningdek, o‘rganilayotgan davr o‘zbek tili (*язык* termini o‘rnida lahja - *наречие* terminini qo‘llaydi ham) mahalliy shevalarining joylashishi bilan bog‘liq ravishda fors (tojik), ozar, rus tilining ta’siri borligi (Терентуев, 1875, 161) to‘g‘risida fikr yuritadi.

2. **Старчевский А. В.** Узбекский язык. Бу асар унинг “Спутник русского человека в Средней Азии” (СПб..1878) asariga kiritilgan. А. V. Starchevskiy o‘z asarini “Узбекский язык” deb ataganligiga qaramasdan til faktlarini izohlashda *turkiy til* degan terminga ko‘proq murojaat qiladi.

А. V. Starchevskiy mashhur turkolog Н. Vamberi tomonidan turkiy tillarning: 1) xitoy-tatar yoki koshg‘ar tili, 2) asl chig‘atoy yoki o‘zbek (Özbek) turkiysi, 3) turkman tili tarzida qilingan tasnifini keltirib, o‘zi ham o‘zbek tili shevalarining tasnifini beradi. U o‘zbek turkiysini (chig‘atoy) 4 guruhga bo‘ladi:

1. *Qo‘qon lahjasi* (наречие). Uningcha, bu shevada bo‘g‘iz tovushlari kuchli qo‘llanadi; *-gan, -gen, -kan, -ken* affiksli sifatdashning (uni ravishdosh deb ko‘rsatadi) ko‘proq o‘tgan zamonni o‘rnida qo‘llanadi va koshg‘ar lahjasini eslatadi; so‘z yasalishi va sintaktik shakllarida umumiylik oz; uning shimolida yashovchi qipchoqlar, qirg‘izlar va qozoqlarning Qo‘qon o‘zbeklari tiliga kuchli ta’siri bor. Ko‘rinadiki, bu aytilganlar Qo‘qon shevasining xususiyatlarini belgilab bera olmaydi,

²⁰ Bu haqda biz ham fikr bildirgan edik: [Аширбоев,1997, 6].

lekin Qo‘qon shevasiga qipchoqlarning ta‘siri masalasini e‘tiborga olish mumkin.

2. *Buxoro (turkiy) lahjasi*. Bu lahjada fors tilining kuchli ta‘siri bo‘lganligi uchun sof o‘zbek tili xarakterini yo‘qotgan va o‘zbekcha so‘zlarda ham fors tilining intonatsiyasi Xuroson va Marvdagidek saqlanib qolgan. Bu o‘rinda gap tojik tilining kuchli ta‘siriga uchragan shevalar haqida bormoqda.

3. *Xiva lahjasi*. Uni Xeva xonligida qo‘llangan nisbiy o‘zbek-turk lahjasi (?) hamda unda Alisher Navoiy asarlaridagi sof chig‘atoy xarakteriga ega bo‘lgan adabiyot saqlanib qolgan deb hisoblaydi.

4. *Sart lahjasi*. Uni shahar tili deb ataydi, uning o‘zbek tilidan (qishloq o‘zbek tilidan) 1) boshqacharoq (чужеобразный) intonatsiya; 2) begona, xususan, forscha so‘zlar va nutq parchalarini sekin va cho‘zib gapirishi (buni qishloqda yashovchilar tushunarsiz qo‘llaydilar deydi) tarzidagi xususiyatini belgilaydi va Xeva shevasidan farqini ham ajratib bera olmaydi, lekin o‘zi bilmagan holda Xeva (Xorazm) shevasidagi **k** ning **g** undoshiga o‘tishi hamda **e** va **ä** o‘rtasida talaffuz qilinadigan **ε** unlisi haqida ma‘lumot beradi [Старчевский, 1878, 6-7].

Алексеев З. А. “Самоучитель сартовского языка. Чтение, письмо и грамматика сартовского языка”. Toshkent, 1884. Prof. A. K. Borovkov bu asarni barcha masalalarda kuchsiz deb hisoblaydi [Боровков, 1942, 282]. To‘g‘ri, bu davrda yaratilgan barcha asarlarda til faktlariga ilmiy jihatdan yondashish deyarli ko‘rinmaydi, biroq mazkur asarni boshqa asarlarga qiyoslasak, nisbatan kuchliroq ekanligini ko‘ramiz.

Z.A.Alekseev diqqatni arab grafikasini o‘rgatishga qaratgan bo‘lsa-da, bir o‘rinda fleksiya qonuni (законы флексии) tushunchasi ostida singarmonizm (ular uni “созвучие звуков” deb atagan) to‘g‘risida fikr yuritadi va turkiy tillarga xos bo‘lgan bu qonunni sart tilida amal qilmasligini aytgani holda, sart tilidagi so‘z asoslarini qattiq va yumshoq turlarga ajratadiki [Алексеев, 1884, 23], bu bilan avvalgi fikriga qarshi chiqib qolganligini sezmay qoladi.

Наливкин В. ва Наливкина М. Русско-сартовски и сартовско-русский словарь общеупотребительных слов, с приложением краткой

грамматики, Qozon, 1884. N. S. Likoshin bu asarning o‘zbek tilini o‘rganuvchi kishilar uchun zarur ekanligini uqtirsa [Ликошин, 1906, № 56], N. I. Ilminskiy undagi ayrim o‘rinlarni tanqid qiladi: tushum kelishigining og‘zaki nutqda *-di // ti* affiksi bilan hosil qilinishini aytadi (“Участие Н. И. Илминского в деле инородческого образования в Туркестанском крае”, - Казань, 1900, 70).

Лапин С.Л. Карманный русско-узбекский словарь”. Бу луғатга “Краткая грамматика узбекского языка” asarini ilova qildi. Unda o‘zbek tilining morfologik (uningcha, etimologik) va qisman sintaktik xususiyatlarini izohlashga harakat qiladi.

Наливкин В. Русководство к практическому изучению сартовского языка. Самарканд, 1898, 1911. V.Nalivkinning bu asariga “Туркестанские ведомости” gazetasida N.M. initsiallarida taqriz e‘lon qilinadi [Qarang: “Туркестанские ведомости”, 1898, №93]. Unda *sart* (o‘zbek - A.S.) tili hali yetarli darajada o‘rganilmaganligiga qaramay, V. Nalivkinning bu qo‘llanmasi o‘zbek tilini o‘rganuvchi rus kishisining ehtiyojini qondira olishi qayd etilgan.

Беляев И.А. Руководство к изучению сартовского языка. Ташкент, 1906. U o‘zbek tilidagi unli va undoshlar uchun Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan transkripsiyani qo‘llaydi. Unlilar uchun a, o, ы, у, и, ö, ä, ү; undoshlar uchun б, п, м, т, д, н, ж, з, ш, с, р, л, к, г hamda л, ж, дж, к, г harflarini tanlagan [Беляев, 1906, 5-6], lekin bunga ko‘p o‘rinlarda amal qilmaydi. Qolaversa, shahar o‘zbeklari, *sart* tilida 8 unli tovushning qo‘llanishi ham munozaraga sabab bo‘ladi.

Қиёсбеков Т. Элементарная грамматика сартовского языка (джагатайского наречия), Ташкент, 1908.

Афанасев Л. Словарь сартовских слов с главнейшими грамматическими правилами. Скобелев, 1908.

Будзинский Н. С. Краткая грамматика сартовского языка и русско-сартовский собеседник, Ташкент, 1910.

Остроумов Н. Этимология сартовского языка. Ташкент, 1910. Bu asar yuqoridagi asarlardan farq qilgan holda, boshqa zaruriyat bilan

yuzaga keldi. Ma'lumki, Toshkentda inqilobgacha bo'lgan davrda Sharqshunoslik institutini tashkil etish uchun harakat boshlangan edi. Uning loyihasi tuzilib, Peterburgga tasdiqlash uchun yuboriladi, ammo Rus-Yapon urushi munosabati bilan bu masala kun tartibidan tushib qoldi. Shunday bo'lsa ham, uning o'rniga Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limi qoshida kurs ochishga erishildi. Bu kurs uchun darsliklar zarur edi. Undan N.Ostroumovning asaridan darslik sifatida foydalanilgan. Asar ana shu zaruriyat bilan yuzaga kelgan bo'lsa-da, N.Ostroumov uni ilmiy asar sifatida taqdim etadi. Asarda o'rni bilan avvalgi asarlarga qisqacha xarakteristika ham berib boriladi. Uning asari 112 sahifadan iborat bo'lib, 3–38-betlarida *sart* so'zi va *sart tili* haqida (o'zbek tili) ba'zi mulohazalarini bayon qiladi. 39-betdan boshlab o'zbek tilining grammatik (morfologik) xususiyatlari yoritiladi. N.Ostroumov o'zbek tili haqida fikr yuritar ekan, o'zining qarashlarini Maks Myullerning “Нукa о языке” asariga asoslangan holda bayon qiladi, O'rni bilan uning fikrlarini keltirib boradi.

Yuqorida biz shu davr mualliflarining qaysi sheva materiallaridan foydalanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirmagan edik. Endi bu asarlarning yaratilishidagi faktik material masalasiga to'xtalamiz, chunki bu o'rinda rus mualliflari o'z asarlarini yaratishda ma'lum bir shevaga yoki muayyan davr adabiy tiliga tayanganmi, degan savollarga javob berish lozim bo'ladi. Garchand, bu asarlarda izohlangan grammatik shakllar umumo'zbek tili xususiyatlariga muvofiq kelsa-da, asosan, xalq so'zlashuv tilini aks ettiradi.

Ayrim mualliflar asarlarining so'zboshi yoki kirish qismlarida qanday faktik material va qaysi sheva materialiga asoslanganliklari haqida ma'lumot beradilar. Masalan, V.Nalivkin va M.Nalivkinalar yozgan grammatik ocherkda Andijon shevasi faktlariga asoslanishganini aytadilar, lekin sheva faktlarini har doim ham topish qiyin, faqat tushum kelishigi affiksining *-di // ti* (دى تى) varianti haqidagi fikrlarnigina uchratdik [Bu affiksning Andijon shevasiga ham oidligi haqida qarang: Иброҳимов, 1967, 145]. Bundan tashqari, asarda Toshkent shevasiga (*beruvdim*, 11- b.) va Namangan shevasiga (*berinar*, 14-b.) xos xususiyatlar ham uchraydi.

A.V.Starchevskiy til faktlarini izohlashda Xiva, Buxoro shevalariga murojaat qilib boradi. Masalan, “Спутник русского человека в Средней Азии” asari “O‘zbek tili” bo‘limining 10-sahifasida qaratqich kelishigi affiksi tarkibidagi **ng(н)** tovushining Xivada fransuzcha **η** kabi, Buxoroda esa yumshoq talaffuz qilinishi haqida fikr yuritadi. Bundan tashqari, *uzoq sharq*da mazkur tovush **nk** kabi talaffuz qilinishini aytadiki, *uzoq sharq* deganda qaysi shevani ko‘zda tutganligi noma’lum bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, so‘z boshida **k** tovushinining **g** kabi talaffuz qilinadi degan fikridan asar uchun faktik material sifatida Xorazm shevalari asos bo‘lganligini aniqlash mumkin [Абдуллаев, 1961, 135]. Shuni alohida qayd qilish kerakki, birinchidan, asarda sheva xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanib turmaydi, ya’ni umumo‘zbek tili xususiyatlariga yaqin keladi, ikkinchidan, o‘zbek tili faktlari (uning shevalarga xos xususiyatlari ham) ko‘p o‘rinlarda buzib ko‘rsatiladi. U harakat nomi affiksining Buxoro va Xiva shevalarida *-maq//mek* variantlari (bu affikslarni transkripsiyada yozish undan talab qilinmaydi, chunki unda bu maqsad bo‘lgan emas) bilan hosil qilinadi, o‘zbek tilining g‘arbiy (uningcha, chig‘atoy) shevalarida esa ot yasovchi affiksdur (uni “слог” deb ataydi) deb ko‘rsatadi. (Спутник...,17). Nazarimizda, Buxoro shevasi deyilganda, Qorako‘l va Olot kabi o‘g‘uz shevalari ko‘zda tutilgan bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, bu shevalar ham Xorazm shevalari kabi o‘g‘uz guruh shevalariga mansub. Bu shevalarda harafkat nomining bu shakli *-maq, -mäk* affiksi bilan ifoda qilinadi [Абдуллаев, 1961, 159; Ashirboev, 2016, 75].

N.S.Budzinskiy o‘z asarini yaratishda Toshkent shevasiga tayanganligi ma’lum bo‘ldi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin: asarning 34-sahifasida qaratqich kelishigi affiksining *-ni* (نى) affiksi bilan hosil qilingan shakli, 95-betda esa o‘tgan zamon davom fe‘lining (uning asarida yaqin o‘tgan zamon) ***bārvātuvdim*** (*borvotuvdim // borvotu:dim*) tipidagi shakli qayd qilinadi. Shunga qaramasdan, asarda qattiq va yumshoq negiz haqida gapiriladiki, bundan asarni yaratishda faqat Toshkent shevasi faktlari bilangina chegaralanib qolmaganligi, balki shu davr adabiy tili materialiga ham murojaat qilganligi ma’lum bo‘ladi. O‘zining ma’lum qilishicha, u N.N.Pantusovning folklor materialidan foydalangan [Pantusov, 1899, 25].

Boshqa asarlarda yuqoridagidek dialektal hodisalarni uchratish qiyin, nazarimizda, izohlanayotgan asarlar jonli soʻzlashuv tiliga asoslangan boʻlsa ham, unda oʻzbek tilining yaqqol koʻzga tashlanib turadigan, eng xarakterli xususiyatlari aniqlangan, shuningdek shu davr vaqtli matbuotidan, ayniqsa, “Turkiston viloyatining gazetisi”dagi matnlardan faktik material sifatida foydalanilgan boʻlishi ehtimoldan uzoq emas, chunki bu gazeta eski oʻzbek adabiy tili faktlarini yangi asrga yetkazib beruvchi manba boʻlishi bilan birga, shu davr soʻzlashuv tili elementlarini ham aks ettiradi, chunki, deyarli, barcha asarlarda *-ni* affiksi tushum kelishigi affiksi sanalishi bilan birga, ayni zamonda qaratqich kelishigining koʻrsatkichi sifatida ham keltiriladi, chiqish kelishigi affiksi aksariyat asarlarda *-din* (دين) tarzida beriladi. Maʼlumki, bu “Turkiston viloyatining gazetisi” tili uchun ham xarakterli boʻlgan hodisadir, lekin uni M. Rahmonov jonli soʻzlashuv tilining taʼsiri deb qaraydi [Raxmanov, 1971, 5]. Fikrimizcha, bu hech qanday eʼtiroz tugʻdirmaydi, chunki bu davr adabiy tilining oʻziga xos xususiyatlaridan biri uning jonli soʻzlashuv tili hisobiga boyib borishidir. Shuni aytish lozimki, chiqish kelishigi affiksining bu varianti Turkiston shevasining hozirgi kundagi asosiy affiksidir [Муҳаммаджонов, 1983, 34]

Koʻrinadiki, zikr etilgan asarlar tilini muayyan bir shevaga nisbat berish, yaʼni maʼlum bir sheva bilan bogʻlab qoʻyish ham, sheva faktlarining mavjudligini inkor etish ham oʻrinli boʻlmaydi. Albatta, yuqorida koʻrsatilgan asarlar oʻzbek shevalari tadqiqotlari tarixini yoritishda manbalardan biri sifatida xizmat qila oladi.

Адабиётлар

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961.
2. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш., Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. -Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар илмий жамияти нашриёти, 2008.
3. Аширбоев С. Ўзбек тили грамматик қурилишининг ўрганилиш тарихидан. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 1975.
4. Аширбоев С. Қутбнинг “Хисрав ва Ширин” достони ва ўзбек адабий тили. – Тошкент; Ўқитувчи, 1997.
5. Ashirboev S. Oʻzbek dialektologiyasi . – Toshkent: Navruz, 2016.
6. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967.

7.Лунин Б. В. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. – Ташкент: 1962.

8.Ликошин Н. С. Знания туземных языков // Туркестанские ведомости, 14 апрель 1906.

9.Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари морфологияси. –Тошкент: Фан, 1983.

10.Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

11.Пантусов Н. Н. Материалы к изучению сартского наречия тюркского языка. – УЗКУ, 1899.

12.Раҳманов М. Синтаксические особенности языка газеты «Туркистон вилоятининг газети»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент,1971.

13.Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.

“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA QO‘LLANGAN ARABIY, FORSIY KIRITMALARNING VAZIFASI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Uluqov Nosirjon,

NamDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida

professori, filologiya fanlari doktori

Tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda *kiritmalar*, *kiritma so‘z va iboralar* kabi terminlar qo‘llanadi. Mazkur birliklar shaklan va ma’no jihatdan aynan bir terminga o‘xshab ko‘rinsa-da, boshqa-boshqa terminlardir [1.93-94; 2.196-197].

Uslubiyatga oid adabiyotlarda nutq jarayonida aytilayotgan fikrning tinglovchiga to‘la yetib borishi uchun gap mazmuniga yoki uning ayrim bo‘laklari ma’nosiga oid qo‘shimcha izoh, ma’lumotlar berish, tushunarsiz va tushunilishi qiyin so‘zlar (dialektizm, professionalizm, termin, jargon, arxaizm, istorizm kabilar) ma’nosini, ayrim leksik birliklarning talaffuzi yoki etimologiyasini izohlash, so‘zlovchining su‘bektiv-emotsional munosabatini ifodalash, xabar manbaini ko‘rsatish, qo‘shimcha ma’lumotlar berish uchun xizmat qiluvchi ayrim bo‘lak, birikma va gaplar **kiritmalar** deb ko‘rsatiladi [2.196].

Ilmiy manbalarda o‘zbek tilida uchraydigan chet tillarga mansub so‘zlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. O‘zlashma so‘zlar.